

1/2023,
yanvar-
fevral
(№ 00063)



ZIYORAT TURIZMIGA IJTIMOIY HODISA SIFATIDA TARIXIY-ILMIY YONDASHUV

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

Buxoro Davlat Universiteti, Iqtisodiyot va Turizm fakulteti tayanch doktoranti,
Buxoro, O'zbekiston. mohinur.kurbanova@mail.ru

ORCID 0000-0002-2292-7937

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a45

Annotation

Ushbu maqolada diniy turizm, ziyorat va turizmning kelib chiqish tarixi ilmiy asoslanib, tushunchalarining mohiyati nazariy jihatdan yoritib berilgan, xorijiy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar tahlil qilinib, "ziyorat" atamasiga mualliflik ta'rifi keltirilgan. Mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish tarixiy asoslarni aniqlash, Buxoroda ziyorat va uning istiqbollari mavzusini rivojlantirishga qo'shimcha hissa qo'shishni o'z ichiga oladi.

Kalit so`zlar: turizm, ziyorat, diniy turizm, ziyoratgoh, avliyo.

Курбанова Мохинур Хабиб кизи

Докторант факультета Экономики и туризма Бухарского государственного университета, Бухара, Узбекистан.

Аннотация

В данной статье теоретически обоснована история возникновения туризма, религиозного туризма и паломничества, проанализированы сущность, понятие и определения, данные зарубежными учеными, в результате разработано авторское определение термина "паломничество". Анализ существующей литературы по теме включает в себя выявление исторических оснований, вносящих дополнительный вклад в разработку темы паломничества в Бухаре и его перспектив.

Ключевые слова: туризм, паломничество, религиозный туризм, святыня, святой.

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

Buxoro Davlat Universiteti, Iqtisodiyot va Turizm fakulteti tayanch doktoranti, Buxoro, O'zbekiston.

Abstract

The article reveals historical origin of emergence tourism, religious tourism and pilgrimage, scientifically substantiated the essence of their concepts, the definitions given by foreign scientists were analyzed, and definition to the term "pilgrimage" is given. The analysis of existing literature on the subject includes the identification of historical foundations, making an additional contribution to the development of the topic of pilgrimage in Bukhara and its prospects.

Keywords: tourism, pilgrimage, religious tourism, shrine, saint.

Kurbanova Mokhinur Xabib kizi

PhD researcher at the faculty of Economy and Tourism, Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan.

Kirish

Ziyorat turizmi mehmondo`stlik sanoatining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo`lib, ko`plab davlatlar dunyoning turli burchaklaridan dindorlarni o`z e`tiqodiga mos sharoit va qulayliklar yaratishga harakat qilmoqda.

Dunyo musulmonlari aholisi soni 2 milliard kishiga yetdi [1]. Xalqaro musulmon sayohatchilar soni 160 million. O`zbekistonda 784 ta islam ziyoratgohi mavjud bo`lib, ularning hammasi ham hududlarning turistik xaritasiga kiritilmagan. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, ziyoratchilarning 93 foizi sayohat davomida qulay shart-sharoitlar bo`lishini ma`qullagan. Turizmning bu turiga talab ko`p bo`lsada uni haligacha to`liq tadqiq qilib, mavjud imkoniyatlardan to`laqonli ravishda foydalani kelinmayapti.

Buxorodagi ziyoratni g`arbiy ziyorat bilan solishtirganda muqaddas joylarga sayohat tashabbusi dastlab islomi farzlardan kelib chiqqan. Ziyorat ular tomonidan jazo sifatida emas, balki Xudo tomonidan berilgan sharaf, ruhiy najot uchun muqaddas joylarga qo`shilish sifatida qabul qilingan. Ziyorat harakatining ishtirokchisi bo`lishni ko`pchilik o`z burchi deb hisoblardi va “yildan-yilga shu qadar tez tarqalganki, ziyoratgohlar haddan tashqari g`ayratli ziyoratchilarni jilovlashga majbur bo`lgan”. Bugungi kunda mazkur tarmoqni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan.

2021-yil 24-fevralda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikasiya qilishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi qarorlarida “... ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, ziyorat turizmi marshrutlarida foydalanimadigan madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, targ`ibot ishlarini keng ravishda amalgalashish, Buxoro viloyati “Yetti Pir” ziyoratgohlariga boruvchi ichki yo`llarni to`liq ta`mirdan chiqarish ustuvor masalalar etib belgilandi. O`zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini to`liq o`rganish, ma`lumotlarni tizimlashtirish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma`lumotlarni shakllantirish, muntazam ravishda ziyorat turizmi yo`nalishida targ`ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish choralarini ko`rishi; xorijiy mamlakatlarda tashkil etiladigan respublikaning ziyorat turizmi salohiyatini targ`ib qilish imkoniyati bo`lgan xalqaro ko`rgazmalarda doimiy ravishda milliy stend bilan ishtirok etib borish; muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar ro`yxatidagi obyektlarning respublika hududlarining “chorlov nuqtasi” sifatida turizm yo`nalishlariga kiritilishini va keng targ`ib qilinishini ta`minlanishi” kabi vazifalar mas`ul idoralarga biriktirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turizm va ziyorat orasidagi farq odatda mavhum bo`lib kelgan. Britaniyalik mashhur antropolog Victor va Edith Turnerlar bir necha yillik tadqiqotlari davomida turizm va ziyoratning farqini aniqlash jarayonida “turist yarim ziyoratchi, agar ziyoratchi yarim turist bo`lsa” degan xulosani tasdiqlashgan [2]. Biroq, hanuzgacha bu ikki atamaning farqi aniq dalillarda keltirilmagan.

Diniy turizm turizmning eng qadimiy shakli bo`lib, u deyarli insoniyat paydo bo`lgan davrga borib taqaladi [3]. Diniy turizm ko`pincha turli yozuvchilar tomonidan madaniy meros turizmi, madaniy turizm va ma`naviy turizm deb ta`riflanadi. Bu nasroniylarning Quddusga tashrif buyurishi va musulmonlarning Makka kabi muqaddas diniy joylarga tashrif buyurishi shaklida edi. Diniy sayohat ibtidosi odamlar imon va e`tiqod masalasi tufayli sayohatlarini

boshlaganlariga borib taqaladi. Bu diniy namoyish, "ziyorat" bilan boshlanadi, bu yerda "ziyoratchi diniy motivatsiyaga ega turist yoki sayohatchi" deb ataladi [4].

Ziyorat ming yillar oldin paydo bo`lgan birinchi turistik faoliyat edi [5]. Zamonaviy tadqiqotchilarning aksariyati ziyoratni Iso Masih bilan bog`lashadi, chunki IV asrda xristian dini Rim imperiyasida yetakchi dinga aylandi. O`sha paytda, birinchi ziyorat Rim imperiyasidan Iso alayhissalom bilan bog`liq joylarga boshlangan deb ishoniladi. Buyuk imperator Konstantinning onasi Yelena xristian ziyoratiga asos solgan deb hisoblanadi.

Keyinchalik, VI-VII asrlarda islom dini paydo bo`lishi bilan Makka shahri musulmonlar uchun markaziy nuqtaga aylandi [3]. Yevropa va Yaqin Sharq tarixida ziyorat nasroniylardan va ayniqsa islom madaniyatidan oldin mayjud bo`lgan [6]. Hatto qadimgi yunonlar va rimliklar ham o`zlarining ibodatxonalarida ibodat qilishgan.

Katolik cherkovi muqaddas joylarga ziyorat qilishni katta (Muqaddas qabriston va Rim) va kichik (mahalliy ziyoratgohlarni ziyorat qilish) ga ajratdi. Ziyorat cherkov tomonidan cherkovga tavba qilishga keladiganlar uchun jazo sifatida qo`llanilgan (ya`ni, muqaddas qadamjolarga uzoq muddatli ibodatlarni amalga oshirish, sadaqa va ro`zani ko`paytirish orqali ruhiy davolash (jazo) sayohati). Xristian dinining ensiklopedik lug`atida: "XIII asrdan boshlab G`arbiy Yevropaning dunyoviy sudlari qotillarni ziyoratga hukm qilishni boshladilar", deb yozilgan. XIV-XV asrlarda Yevropa dunyoviy sudlari jinoyatchilarga katta ziyorat qilishdan voz kechib, faqat kichik ziyoratni saqlab qolganlar. Keyinchalik, G`arbda aybdor zodagonlar gunohlaridan forih bo`lish uchun o`zlarining o`rniga xizmatkorlarini yoki yollanma kishilarini ibodat qilish uchun yuborishga ruxsat berildi. Keyinchalik bunday ziyorat turi katta biznesga aylanib, yollanma ziyoratchilarning korxonalari tashkil etildi. Aybdor shaxslar Rim papasining rozilagini olib mazkur ziyoratchilar bilan bitim imzolab "jazoni o`tash" uchun sayohatga yuborilgan.

Bunday mashg`ulotlarning markazi Venetsiya, keyinchalik Marsel bo`lgan. Bu yerda yollanma ziyoratchilarga yo`l ko`satgich berilib, ular uzun soqol qo`yib, kaligi (jigar yoki kulrang plashlar) kiyganlar, boshlariga keng chiziqli yunon shlyapasini kiyib, o`zları bilan tayoq, sumka va suv bilan to`la qovoqni olishgan. Plash va shlyapaga qizil xoch yopishtirilgan. Safar oldidan ziyoratchi homiy (kema egasi) bilan shartnoma tuzib, unga ko`ra "kema egasi" uni Muqaddas yerga olib borishi va qaytarib kelishi, va sayohat mobaynida esa "muqaddas joylarga hamrohlik qilishi, oziq-ovqat yetkazib berishi va ziyoratchini xavfsizligini ta`minlashi, u uchun musulmon hukumatiga soliq to`lashga majbur bo`lgan".

Ziyorat turizm, uning ta`rifi va kelib chiqish davrini tadqiq qilish maqsadidagi olimlar bu masalaga turli xulosalar berishgan. Garchi ba`zilar ziyorat va turizm insoniy xulq-atvorning alohida va bir-birini istisno qiladigan toifalari ekanligini ta`kidlagan bo`lsada, ba`zi olimlar bunday aniq farq yo`q deb qarshi chiqishdi. Ayrimlar ziyorat bu turizmning bir turi deb hisoblasa, boshqalari turizm ziyoratning bir turi ekanligini ta`kidlaydi. Boshqa olimlar bu ikki tushuncha umuman qarama-qarshi ma`noni anglatadi desa, ba`zilari esa so`zlar o`rtasida umuman farq yo`qligini ta`kidlaydilar. Umumiy qilib aytganda, asosiy qism olimlar "ziyorat diniy baxsh qilish (qurbanlik)ga aloqador sabablarga ko`ra amalga oshiriladi", degan farazni ilgari surmoqda.

Ziyorat - bu 1) ziyoratchi tomonidan uyuştiladigan maxsus sayohat; 2) hurmat qilish uchun maxsus joylarga borish; 3) diniy sabablarga ko`ra, ko`pincha uzoq davom etadigan muqaddas joylarga sayohat [7]. Olimlar ziyoratning ijtimoiy, diniy va madaniy jihatlarini o`rganib, turli ta`riflar berdilar.

“Ziyorat” tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan ta`riflar

Graburn (1983)	ziyorat turizm – bu sayohatning muqaddas bir turi
Smit (1992)	ziyoratchining, ayniqsa, ziyoratgoh yoki muqaddas qadamjoga diniy sayohatini anglatadi
Barber (1993)	muqaddas qadamjoga borish va botiniy ruhiy maqsadda o`zini anglash maqsadidagi diniy sabablarga ko`ra sodir bo`ladigan sayohat
Murrey & Graham (1997)	diniy hodisa bo`lib, Olloh va avliyolarning shafoatiga sazovor bo`lish, turli tashvishlardan xalos bo`lish maqsadida bir kishi yoki guruhning ma`lum bir diniy joyga sayohatga chiqishi
Digance (2003)	odatiy va dunyoviy tajribadan tashqari muqaddaslangan makon talab qiladigan va insonni Xudoga yoki o`zining kosmologiyasidagi ilohiy shaxsiga yaqinlashish imkonini beradigan “amaliyot”
Timoti, D.J. & Olsen, D.H. (2006)	kutilajak natijasi kishining e`tiqod tizimi yoki kosmologiyasi markazidagi Olloh yoki ilohiy shaxs(lar) bilan uchrashish bo`lgan joyga safar
Ellwood, R.S. (2008)	muqaddas sanalgan va kimki u joyga qadam ranjida qilsa baxt olib keladigan joylarga diniy sabablarga ko`ra uyuştilriladigan sayohat. U dinni ko`pchilik uchun yoqimli va ta`lim beruvchi faoliyat bilan birlashtiradi.
Campo, J.E. (2009)	Xudo, avliyo, ajdod, yodgorlik yoki boshqa turdagি ruhiy mavjudotlar bilan uchrashishni o`z ichiga olgan muqaddas joylarga diniy sayohat
Collins-Kreiner (2010)	diniy va dunyoviy asoslarga ega yaxlit hodisa
Fernandes, C. & boshqalar. (2012)	insonlarning yashash uchun asosiy ehtiyoj bo`limgan sabablarga ko`ra odatiy yashash joyini tark etib, keyinchalik diniy turistik sayohatga aylanadigan, ilohiyotga, muqaddas makon va zamonga yo`naltirilgan sayri
Reader, I. & Walter, T. (2016)	ziyorat “aynan diniy” bo`lishi shart emas, u bilvosita diniy xususiyatga ega va ziyoratga o`xshash bo`lishi mumkin
Bari, M.W., & Khan, Q., (2020)	ma`lum bir diniy e`tiqod tizimiga ishongan kishi uchun alohida ahamiyatga ega bo`lgan ba`zi joylarga jismoniy sayohat

Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlansmasi

Campo Islom ensiklopediyasida musulmon mamlakatlaridagi diniy safarni ziyorat deb atagan [13], bu arab tilida “tashrif” va “tashrif buyurish” degan ma`noni anglatadi. Ziyorat atamasi odatda boshqa musulmon ziyoratgohlariga ixtiyoriy ravishda ziyoratga borish mazmunida qo`llaniladi.

O`zbek tilining izohli lug`atida ziyoratga “tashrif, tabarruk joylarga safar qilish” deb ta`rif berilgan. Diniy va ijtimoiy nuqtai-nazardan esa ziyorat [18] - 1) muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib sig`inish; 2) hurmat yoki rasmiyat yuzasidan keksa, tabarruk kishilar, hurmatli zotlar huzuriga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olish, ularni muborakbod qilish, deb izohlangan.


Izohli va diniy lug`atlarda, tahlil qilingan yozma ilmiy manbalarda hamda 1-jadvalda keltirilgan nazariy ta`riflar umumlashtirilganda ziyorat asosan islomiy ta`limot egalarining tashrifiga mo`ljallanganligi, uni chet tilida “ziyarat” atamasi bilan ta`riffash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, o`lkamizda ziyorat motivlarining paydo bo`lishi, mazkur faoliyatga ilmiy jihatdan yondashuv zarurligi, respublikamizda ziyorat turizmni rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun yetarli tadqiqot ishlari mavjud emasligini ko`rinib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ziyorat turizmning kelib chiqishini ilmiy asoslash maqsadida tarixiy yozma manbalarga murojaat etgan holda analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalilanigan. Ma`lumotlarning ishonchligi O`zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy me`ros vazirligi, turizm sohasidagi bir necha xalqaro tashkilotlarning rasmiy veb-saytaridan hamda ziyorat turizm yuzasidan tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanganlik bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar

Xorijiy olimlarning ta`riflaridan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, “ziyorat” - bu ma`lum bir marosimlarni bajarish uchun muqaddas joylar, shaxs yoki qabriston kabi ma`lum bir joylarga safar uyushtirish. Ziyorat odatda qabr boshida Qur`on suralaridan tilovat qilish, marhum uchun duo qilish, xayr va sadaqa berishdan iborat bo`lgan marosimdir.



1-chizma. Ziyoratning uzviy tuzilishi bo`yicha tasniflanishi

Manba: Navruz-zoda Zebiniso (2020). Evaluation of Holy Places of the Regions for the Development of Pilgrimage Tourism.// Indonesian Journal of Law and Economics Review. Indonesia. IJLER 6 (0). doi:10.21070/ijler. 2020.V6.493. V6.493. 365-370-p.

Tashqi safar o`z navbatida ichki safarni amalga oshirishga ko`maklashadi. Ichki sayohat jarayonida inson yomon xulqdan xushfellikka qarab harakatlansa, inson nopolik holatidan poklik darajasiga ko`tariladi, qalb tozalanib, ruhiy xotirjamlikka erishiladi.

Shunday qilib, hozirgi bosqichdagi “ziyorat” tushunchasini kengroq talqin qilish mumkin. Bundan kelib chiqib, bir necha rus olimlari ziyorat turizmining quyidagi tasnifini taklif qilganlar [22]:


	DINIY Muqaddas joylarga diniy ziyorat qilishning barcha turlari		RUHIY-DUNYOVYI Ruhiy poklanish, o`z-o`zini takomillashtirish, olam sirlarini anglash va boshqalar bilan bog`liq bo`lgan turizmning noodatiy turi. Tabiiy, tarixiy-madaniy obyektlar tashrif joyi sifatida xizmat qilishi mumkin.		MADANIY-MA'RIFIY Insonlarning madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tur bo`lib, asosan diniy ahamiyatga ega bo`lgan madaniy va tarixiy joylar, taniqli shaxslarga tashrif buyurishni o`z ichiga oladi.		SPORT Eng mashhur tabiat obyektlariga, piyoda, chang`i, suv va boshqa turizm turlari bo`yicha taniqli va murakkab turistik marshrutlarga borish, mashhur sport inshootlari yoki sport jamoalariga tashrif buyurish bo`lishi mumkin.
---	---	---	--	---	--	---	---

2-chizma. Ziyorat turizmining rus olimlar tomonidan tasniflanishi

Manba: Байлагасов, Л. В., & Гоппа, М. И. (2016). О классификации паломнического туризма. Символ науки, (10-3), 192-194.

Metafora bilan aytganda har bir sayohat ziyorat bo`lishi mumkin. Agar sayohatchi safari davomida muqaddas joylarga, ziyoratxonalarga tashrif buyursa, kimnidir ziyorat qilish maqsadida kelsa u ham turist ham ziyoratchi sanaladi. Buni turizm statistikasida aks ettirish esa ancha qiyin tus oladi. Bizning fikrimizcha, diniy turizm, ziyorat va turizm kabi atamalarning ham o`zaro bir biriga bog`liqligini inobatga oladigan bo`lsak, ularni faqatgina sayyoohning aniq nima madsadda tashrif buyurganligini aytgan holidagina uning nima maqsadda (diniy turizm, ziyorat yoki turizm) tashrif buyurganligini aniqlashtirish imkonи bo`ladi.

Demak, ziyorat atamasiga insonning ichki va tashqi dunyosini uyg`unlashtiruvchi quyidagicha mualliflik ta`rifini keltirishni ma`qul ko`rdik: *“ziyorat - bu insonning botiniy va zohiriy dunyosini poklash maqsadida dunyoviy hoyu-havaslardan voz kechgan holda Ollohrizoligini istab sayohat qilishidir”*.



3-chizma. Ziyorat va turizmning o`xshash va farqli jihatlari

Manba: muallif ishlanmasi

Ziyorat va turizmni Venn diagrammasi asosida tahlil qiladigan bo`lsak, ularning farqli va o`xshash jihatlari bisyor (3-chizmaga qarang). Ularning xilma-xilligiga qaramay, ziyoratni tavsiflovchi ba`zi (jumladan, ishonch, e`tiqod, taqvo, najot istash) jumlalar din bilan bog`liq.

Diniy turizm yo`nalishidagi ma`rifiy sayohatlar doirasida turistlar diniy obyektlar, diniy mazmundagi muzey va ko`rgazmalarga tashrif buyurishlari rejalashtiriladi. Sayyoohlар diniy marosimlar, meditatsiyalar kabi diniy tadbirdarda ishtirok etishlari mumkin, ba`zi bir tadbirdarda boshqa din vakillari ishtirok etishi qat`iyan man etiladi. Diniy yo`nalishidagi ma`rifiy sayohatlar, ziyorat sayohatlaridan farqli o`laroq, qisqaroq, diniy bayramlarga mo`ljallanmagan va ularda barcha yoshdagi aholi qatlami qatnashish imkoniga ega. Sayyoohlар ekskursiya dasturining bir qismi sifatida diniy joylarga tashrif buyurishi mumkin, ammo ziyoratchilar uchun ekskursiya ikkinchi darajali sayohat sanaladi.

Fanda har xil tavsifga ko`ra tasniflangan ziyoratning bir necha turlari mavjud. Jumladan, ishtirokchilar soniga, davomiyligiga, mavsumiyligiga, obyektlariga, ziyoratgohning joylashgan joyiga hamda majburiy qilib belgilanishiga ko`ra tasniflanadi (2-jadvalga qarang).

Har xil ziyorat turlari mavjud. Yakka tartibdagi, oilaviy va guruhli ziyoratlar ishtirokchilar soni va oilaviy mansublik asoslari bilan farqlanadi. Muddati bo`yicha uzoq va qisqa ziyoratlarni belgilanishi mumkin. Ilgari, rus pravoslav qonunlariga ko`ra ziyorat 10 kundan ortiq davom etadigan sayohat deb hisoblangan. Ziyoratchilar tashrif buyuradigan obyektlar qaysi davlatda joylashganiga qarab, ichki va xorijiy sayohatlar mavjud.

2-jadval

Xususiyatiga ko`ra ziyorat turizmning turlari

Ishtirokchi- lar soniga ko`ra	Davomiyligi- ga ko`ra	Mavsumiyli- giga ko`ra	Obyektlariga asosan	Ziyoratgoh- ning joylashgan joyiga ko`ra	Majburiylik-ka ko`ra
individual oilaviy guruhi	uzoq muddatli qisqa muddatli	yil bo`yi diniy bayramlarga mo`ljallangan ziyorat	diniy ibodat joylari tabiiy muqaddas qadamjolar	ichki xorijiy	ixtiyoriy majburiy

Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Ziyoratchilar odatda xizmat ko`rsatish darajasi va sifati, ovqatlanish va turar joy bo`yicha boshqa sayohatchilarga qaraganda ancha kam talablar qo`yadilar, misol uchun, musulmon dinida faqat halol bo`lishi talab etiladi. Ziyoratchilar cherkovlarning xonalarida, ashramlar hududida, chodirlı shaharlarda (masalan, Mina shahri) tunashlari mumkin. Oziq-ovqat tanlovi odatda kichik va kamtarona hissada iste`mol qilinadi.

Islomda Haj ziyoratini umummilliylashtirishdan tashqari bir necha ixtiyoriy ziyoratlarni, hududiy chegaralardagi ba`zi shaxslar, madaniyatlar va dinlarga aloqador bo`lgan muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish maqsadi tobora ortib bormoqda. Ularning aksariyati islom avliyolari va shahidlari bilan bog`liq joylarga qaratilgan bo`lsa, butun musulmon olamida avliyolarning qabrlari mahalliy, mintaqaviy yoki milliy ziyoratgohlar bo`lib hisoblangan. Diniy qadamjolarning ko`pligi va tashrif buyurishlilik potensiali yuqoriligi bo`yicha, musulmon dini vakillari orasida O`zbekiston ham alohida o`rin egallab, mintaqada

784 ta islom ziyoratgohi, 19 ta xristian ziyoratgohi va 8 ta buddizm madaniy merozi obyekti mavjud [23].

Buxorodagi zardushtiylik otashxonasi, Termiz hududidagi budda ibodatxonalar, viloyatlarda faoliyat olib borayotgan xristian cherkovlari, islom dinining "Oltin silsilasi" [24] ro`yxatidan joy olgan Buxoro va Qashqadaryoning avliyo ziyoratgohlari kabi bir qator obyektlar ziyoratning ibtidosi qisman mamlakatimiz hududiga ham to`g`ri kelganligidan dalolat beradi.

O`zbekiston Jahon musulmon sayohatlari indeksi (Global Muslim Travel Index) ro`yxatida yil sayin ko`tarilib, 2021-yilda 16-o`rinni [25], 2022-yilda 9-o`rinni [26] egalladi. 2018-2019-yillarda vizasiz rejim joriy etilishi bilan Indoneziyadan sayyoohlarni oqimi 170 foizga, Malayziyadan 158 foizga, Turkiyadan 154 foizga, BAA dan musulmon turistlar oqimi 153 foizga oshdi. Shu bilan birga, mamlakatimiz "Halal Travel Frontier 2020" hisobotida musulmon turizm bozorida islom merozinik tiklash bo`yicha yangi tendensiyani boshlagan davlat sifatida e`tirof etildi.

O`zbekistonda turizmnı rivojlantirishda Buxoro viloyatining muqaddas qadamjolari muhim o`rin tutadi. Buxoro qadim-qadimdan avliyolar, pirlar shahri sanalgan. Ushbu makonda ziyorat turizmini rivojlantirish orqali ham mahalliy ham xorijiy sayyoohlarni jalb qilish mumkin bo`ladi. Abul Hasan Abduramon ibn Muhammad Nishopuriy "Xazoin ul ulum" ("Ilmlar xazinasi") asarida yozganki, "Buxoro qadimdan suvi shirin, havosi latif, atrofi keng, nozu ne`mat, mollari ko`p bo`lishi bilan ziynatlanib, hozirgacha ulamo toifasining to`plangan joyi, faqat balog`at va shirin so`zlarning manbai bo`lib kelgan". Mana shuning uchun Buxoro shahri va uning atroflarida 160 ta avliyolik darajasiga sazovor bo`lgan mashoyixlar, olimlar, donishmandlar va shoirlarning qabrlari va qadamjolari mavjuddir.

Buxoro zaminida amalga oshirilgan ziyoratning G`arbiy ziyoratdan farqi shundaki, uning ishtirokchilari muqaddas joylarga sayohatlari davomida ko`rgan va his qilganlarini ma`lum siyosiy-ijtimoiy muammolar tufayli bizning eramizgacha saqlanib qolmagan kitoblarga yozishga harakat qilganlar. Biroq, ziyoratning ta`rifi, tarixi va Buxoroda rivojlanishi haqidagi bilimlar hamon bugungi kun ijtimoiy fanlarining asosiy muammosi bo`lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan masalalar tahlili asosida quyidagicha taklif va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

birinchidan, hozirgi kunga qadar biror bir o`zbek olimlari ziyorat atamasiga mualliflik ta`rifini keltirmaganligi bois O`zbekiston Respublikasi Turizm to`g`risidagi qonunining 3-moddasi "Asosiy tushunchalar" qismiga "diniy turizm, ziyorat turizm, ziyoratchi" kabi atamalarni kiritish va ularga batafsil izoh berish darkor. Zero, O`zbekistonning turistik potensialida diniy turizmning ulushi kattadir;

ikkinchidan, milliy tariximiz ildizlari qayta tiklanishi, aholi orasida targ`ibot-tashviqot ishlari olib borilishi, ajdodlar merozi butunjahon ilm ahli orasida tadqiq qilinishi, ularning madaniy merozi umummillatlar orasida keng targ`ib qilinishi, tarixiy-ilmiy kutubxonalar faoliyatini yo`lga qo`yish. Vaholanki, o`z davrining Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Umar Xayyom kabi yetuk allomalari qadimiy Buxoroning Arkida nafaqat hukmdor amirlar, balki buyuk olimlar, shoiru faylasuflar ham yashab, ijod qilib, avlodlarga bebafo meroz qoldirgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino bu haqda:" Bu yer kutubxonasidan shunday kitoblarni topdim, ularni oldin ham, keyin ham hech qayerda ko`rmadim. Ularni o`qib chiqdim va menga olam sirlari ayon bo`ldi.", deb yozadi.;

uchinchidan, ziyorat obyektlariga borish uchun infratuzilma yaxshilanishi, ziyoratgohlarda xalqaro andozalarga mos ravishda xizmat ko`rsatishni tashkil etilishi;

to`rtinchidan, mavjud resurslardan foydalangan holda yangi turistik yo`nalish yaratilishi, natijada diniy turizm asnosida ichki va xorijiy sayyoohlar qatnovi yo`lga qo`yilishi;

beshinchidan, oliy ta`lim dargohlari huzurida O`zbekiston hududida yashab ijod qilgan avliyo, alloma, olim va shayxlar hayotini o`rganishga yo`naltirilgan Ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil qilish;

oltinchidan, Buxoro viloyatidagi ziyoratgohlarda jahon hamjamiyati olimlari ishtirokida o`tkaziladigan xalqaro darajadagi forum va konferensiyalarni uyuştirish Buxoroning islam tamaddunidagi o`rnini qayta tiklash va mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. MASTERCARD-CRESCENTRATING GLOBAL MUSLIM TRAVEL INDEX 2022.

<https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2022.html>

2. Turner, V. W., & Turner, E. L. (2011). Image and pilgrimage in Christian culture. Columbia University Press.

3. Bari, M.W., & Khan, Q. (2020). GLOBAL DEVELOPMENT OF RELIGIOUS TOURISM. Chapter I. Pakistan as a destination of religious tourism. IGI Global.

4. Alaverdov, E., & Bari, M. W. (Eds.). (2020). Global Development of Religious Tourism. IGI Global.

5. Timothy, D. J., & Olsen, D. H. (Eds.). (2006). Tourism, religion and spiritual journeys (Vol. 4). London: Routledge.

6. Тинина, З. П. (2013). Историографический аспект паломничества, как социокультурного феномена (постановка проблемы). Приволжский научный вестник, (8-1 (24)), 58-69.

7. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/pilgrimage>

8. Graburn, N. H. (1983). The anthropology of tourism. Annals of tourism research, 10(1), 9-33.

9. Smith, V. L. (1992). Pilgrimage and tourism: the quest in guest; special issue. Annals of tourism research, 1992.

10. Barber, R. P. (1993). The Boydell Press: London.

11. Graham, B., & Murray, M. (1997). The spiritual and the profane: the pilgrimage to Santiago de Compostela. Ecumene, 4(4), 389-409.

12. Digance, J. (2003). Pilgrimage at contested sites. Annals of tourism research, 30(1), 143-159.

13. Ellwood, R. S. (2008). The encyclopedia of world religions. Infobase Publishing.

14. Campo, J. E. (2009). Encyclopedia of Islam. Infobase Publishing.

15. Collins-Kreiner, N. (2010). Researching pilgrimage: Continuity and transformations. Annals of tourism research, 37(2), 440-456.

16. Fernandes, C., Pimenta, E., Gonçalves, F., & Rachão, S. (2012). A new research approach for religious tourism: the case study of the Portuguese route to Santiago. International Journal of Tourism Policy, 4(2), 83-94.

17. Reader, I., & Walter, T. (Eds.). (2016). Pilgrimage in popular culture. Springer.

18. O`zbek tilining izohli lug`ati. – T. "O`zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – 672 bet.
19. Navruz-Zoda Bakhtiyor, Navruz-zoda Zebiniso. The Destination Marketing Development of Religious Tourism in Uzbekistan: A Case Sdudy // Religious Tourism in Asia: Tradition and Change through Case Studies and Narratives.Monograph. Edited by Shin Yasuda, Razaq Raj and Kevin Griffin. CABI International publishing. Oxfordshire, UK.2018. 149-157-p.
20. B Navruz-Zoda, N Ibragimov. The measures for improving virtual activity of incoming urban tourism in Uzbekistan. World Journal of Tourism Small Business Management. Volume 1 (3), 2007. 43-49.
21. Navruz-zoda Zebiniso (2020). Evaluation of Holy Places of the Regions for the Development of Pilgrimage Tourism.// Indonesian Journal of Law and Economics Review. Indonesia. IJLER 6 (0). doi:10.21070/ijler. 2020.V6.493 V6.493. 365-370-p.
22. Байлагасов, Л. В., & Гоппа, М. И. (2016). О классификации паломнического туризма. Символ науки, (10-3), 192-194.
23. <https://uzbektourism.uz/news/view?id=2177>
24. <https://naqshbandi.org/the-naqshbandi-golden-chain/the-chain/>
25. <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2021.html>
26. <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2022.html>